

## TA'LIM TARBIYA JARAYONIDA MA'NAVYI-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGI

**Elbekova E'zoza Jamshid qizi**

Osiyo Xalqaro universiteti MM8-PP-22 guruh magistranti

[www.mustangn1@gmail.com](mailto:www.mustangn1@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqolada ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishning maqsadi va mazmuni, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar, ma'naviy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, strategik yo'nalishlari va innovatsion uslublari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat, axloqiy ma'naviy sifat, ma'naviy tarbiya, tadbirlar.

### ABSTRACT

The article describes the purpose and content of the organization of spiritual and educational activities, tasks to be completed, features of spiritual education, strategic directions and innovative methods.

**Keywords:** spirituality, spiritual and educational activity, moral spiritual quality, spiritual education, activities.

### KIRISH

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish – har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan axloqiy-jismoniy, badiiy-estetik va axloqiy ma'naviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yo'naltirilgan chora tadbirlar majmuidir. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning umuman jamiyatning har bir a'zosining tarbiyasi bilan etarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlikga yuz tutadi va oxir oqibatda inqirozga mahkum bo'ladi. Ma'naviy ma'rifiy ishlar yetarlicha olib borilmasa ma'naviy tahdidlarga yo'l ochiladi [4].

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad – mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish asnosida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishdan ko'zlangan bosh maqsad – Vatani, millatiga cheksiz sadoqatli, o'z millat qadriyatlarini, an'analari, urf-odatlarini avaylabasraydigan, doimiy ravishda boyitib, o'zining yuksak ma'naviy-axloqiy,

g'oyaviy-mafkuraviy sifatlarini shakllantirib, takomillashtirib boradigan shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etish borasida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar quyidagilardan iboratdir:

✓ fuqarolarda Vatanga va millatga cheksiz muhabbat ruhiyatini shakllantirish, Vatanning muqaddasligi, u insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga mazmun baxsh etadigan tabarruk maskan ekanligini tushuntirish;

✓ kishilarda ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi umumbashariy sifatlarini rivojlantirish va kengaytirish, ularda millatlararo hamjihatlikka rahna soluvchi illat tajavuzkor millatchilik va shovinizm ekanligini tushuntirish;

✓ O'zbekiston rivoji uchun tashabbuskorlikni kuchaytirish, jamiyatda ijodiy muhitni yaratish, har bir xodimda tevarak-atrofdagi ro'y berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan dahldorlik hissini uyg'otish, befarqlik, sansolarlik kabi salbiy holatlarga barham berish;

✓ kishilarning siyosiy madaniyatini oshirish, ularning davlat va jamiyat oldida turgan buyuk va muqaddas vazifalarni anglab etish darajasini oshirish, mamlakatimiz siyosiy hayotida ro'y berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qila olish salohiyatini shakllantirish;

✓ jamiyat a'zolarining ma'naviy olamini, dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, siyosiy-huquqiy bilim saviyasini ko'tarish, dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga baho berish ko'nikmasini shakllantirish, mafkuraviy-g'oyaviy jarayonlarni ongli ravishda anglab etishiga ko'maklashish;

✓ yoshlarda "ommaviy madaniyat"ning mazmun-mohiyatini anglab etishiga, mafkuraviy immunitetni hosil qilishga yordam berish;

✓ jamiyat a'zolari, ayniqsa yoshlarning bo'sh vaqtini samarali va unumli tarzda tashkil etish, ularning badiiy havaskorlik, hunarmandchilik, texnikaviy va boshqa qiziqishlarini o'rganish, tashkil etish, iqtidorlarni topish, tarbiyalash.

## **NATIJALAR**

Shu o'rinda ma'naviy tarbiyaning quyidagi jihatlari, o'ziga xos xususiyatlarini qayd etish maqsadga muvofiq:

ma'naviy tarbiya inson faoliyatining o'ziga xos shakli sifatida tarbiyaning milliy jihatlari ko'proq ahamiyat beradi. Binobarin, mustamlakachilik va mustabid tuzumlar davrida tarbiya tizimida milliylikning yo'qotilishi aslida fuqarolarda milliy o'zlikni yo'q qilishdan boshqa narsa emasdi;

ma'naviy tarbiya deganda ko'proq suyanilishi lozim bo'lgan holatlardan biri uning sog'lom tafakkur bilan uyg'un holda tushunilishidir. Sog'lom tafakkur inson ma'naviyatining eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi;

ma'naviy tarbiyaning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri uning bag'rikenglik, millatlararo munosabatlardagi mu'tadillik tamoyillari bilan jiddiy uyg'unligidadir. Hozirgi kunda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat, elatlar istiqomat qilayotgan bo'lsa ularning o'zaro munosabatlaridagi hamjihatlik, birodarlik, bir-biriga nisbatan kuchli ishonch – bularning bari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy tarbiyaning natijasi hisoblanadi.

### **MUHOKAMA**

O'zbekistonda hozirgi kunda olib borilayotgan ma'naviy tarbiyaning tub negizini tashkil etadigan omillardan yana biri unda ilg'or demokratik qoidalarga jiddiy e'tibor qaratilganligi bilan izohlanadi.

Va nihoyat, ma'naviy tarbiyaning o'ta muhim ahamiyat kasb etayotganligiga ta'sir ko'rsatayotgan jihatlardan yana biri uning axloqiylik tamoyili bilan jiddiy uyg'unlikda ekanligidir. Ma'naviy tarbiyaning asosini, mag'zini insondagi axloq tashkil etadi. Aslida insonning insonligi ham uning axloqi bilan o'lchanadi [5].

Bu yorug' dunyoda insonni doimiy ravishda o'ylantirib kelayotgan narsalar, jumboqli hodisalar, yechimini kutayotgan muammolar son-sanoqsiz. Ammo shularning ichida eng muhimi, qolgan barcha muammolarni hal etishga turtki bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa – ma'naviyat va tarbiya masalasi. Tarbiya va ma'naviyat tushunchalarini bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ular dialektik aloqada, mantiqan bir maqsadning ikki yetakchi kuchi. Tom ma'nodagi insoniy fazilatlarga tarbiya jarayonisiz erishib bo'lmagani kabi, ma'naviy omillarsiz ham uni tasavvur etish amri-mahol. Shuning uchun ham O'zbekistonda har ikki fenomen hodisa o'zaro aloqadorlikda mavjud [3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida quyidagilar ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviylikini ta'minlash;

targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy

muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

"Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish;

tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlariga hamda insonparvarlik g'oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish;

aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida bunyodkorlik g'oyalarini kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash.

Qaror bilan Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Dastur doirasida respublika bo'ylab "Ma'naviyat festivali" va "Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi" tanlovi o'tkaziladi.

"Bu yilda o'qish zarur bo'lgan 100 ta kitob" ro'yxati tuziladi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Respublika kengashining, uning hududiy bo'lim va bo'linmalari tegishli hududiy kengashlarning ishchi organlari hisoblanadi.

Qarorga muvofiq, Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi hamda Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitning holatini aniqlash va manzilli sog'lomlashtirish metodikasi ishlab chiqiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar uchun mas'ul xodimlar Markaz huzuridagi "Ma'naviyat targ'ibotchisi" ta'lim muassasasida o'qitiladi.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, xis-tuyg'ulari rivojlanadi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish

g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va xohishlarini ifodalaydi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki, his tuyg'ularini ham o'stira borish. unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan ahloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga ta'lim jarayoni asosida hissiyotiga va irodasiga sistemali va muntazam ta'sir etib boriladi. O'quvchini tarbiyalashda bularning birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p qirrali va murakkab jarayon deb yuritiladi [2].

### **XULOSA**

Demak, xulosa qilish mumkinki, tarbiya jarayoni, odatda, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi. Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand nasihatlarini, o'g'itlari va tarbiya haqidagi fikrlari alohida o'rin egallaydi. Donishmandlarning pand-nasihatlarini umrboqiy ma'naviy boylik hisoblanadi. Chunki, ular hayotdan, hayot tajribalaridan kelib chiqqan va ezgu orzu niyatni ifodalaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
2. Asqarov A. Umumiy pedagogika . – Toshkent: " Fan va texnologiya", 2018. – 373-b.
3. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. - T; Toshkent Islom Universiteti, 2001y, 37-b.
4. Samadova S. Ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirishning pedagogik asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Buxoro: "Durdon" nashriyoti, 2020. – 97 b.
5. Тошева Н.М., Тухтаева З.Ш., Атамурадова Г.О. Значение самостоятельного образования при формировании творческой деятельности - Молодой ученый, 2014. № 8. – С. 878-879.  
<https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=1911397020242422124&btnI=1&hl=ru>
6. Olimov K.T., Tukhtayeva Z.Sh. Integration of Special Subjects, Opportunities and Solutions. Eastern European Scientific Journal, 2019. Germany, 2019/2. - P. 67-70.

7. Tukhtayeva Z.Sh., Saidova Kh.Kh. Innovative forms of education in Uzbekistan International journal of innovations in engineering research and technology [IJIERT] Volume 7, ISSUE 4, Apr.-2020. – Pages 258-261.
8. Юнусова Г. ва бошкалар. Methods of teaching the uzbek language in higher education. Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 2021, Volume 27, Issue 2, Pages 5525-5532 10.47750/cibg.2021.27.02.559 [https://www.cibgp.com/article\\_11080.html](https://www.cibgp.com/article_11080.html)
9. Tukhtayeva Z.Sh., Imomov B.B. Possibilities of Introducing Information Technologies in Educational Process. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAAR) ISSN: 2643-9603 Vol. 4, Issue 4, April – 2020. – Pages 78-80.